

MINTAQAVIY EKSPORT SALOHIYATI TUSHUNCHASI VA UNING EVOLYUTSIYASI

Abstrakt. Mazkur maqolada mintaqaviy eksport salohiyati tushunchasining nazariy asoslari, uning shakllanishi va evolyutsion rivojlanish bosqichlari tizimli ravishda tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida eksport salohiyati kategoriyasining iqtisodiy mazmuni klassik, neoklassik va zamonaviy iqtisodiy nazariyalar nuqtai nazaridan yoritilib, uning hududiy rivojlanish omillari bilan o'zaro bog'liqligi asoslab berilgan. Xususan, mintaqaviy eksport salohiyati ishlab chiqarish resurslari, infratuzilma, innovatsion salohiyat, institutsional muhit va tashqi bozorlar bilan integratsiya darajasi kabi kompleks omillar yig'indisi sifatida talqin etiladi.

Maqolada mintaqaviy eksport salohiyatining evolyutsiyasi bosqichma-bosqich ko'rib chiqilib, uning dastlabki resurslarga asoslangan modeldan innovatsion va raqobatbardoshlikka yo'naltirilgan modelga o'tish tendensiyalari ochib berilgan. Shuningdek, globalizatsiya va raqamli transformatsiya sharoitida eksport salohiyatining yangi ko'rinishlari, jumladan, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, logistika tizimlarining rivojlanishi va xizmatlar eksportining kengayishi bilan bog'liq jihatlar tahlil etilgan.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические основы концепции регионального экспортного потенциала, этапы его формирования и эволюционного развития. В рамках исследования освещается экономическое содержание категории экспортного потенциала с точки зрения классической, неоклассической и современной экономических теорий, а также обосновывается его взаимосвязь с факторами регионального развития. В частности, региональный экспортный потенциал интерпретируется как совокупность сложных факторов, таких как производственные ресурсы, инфраструктура, инновационный потенциал, институциональная среда и уровень интеграции с внешними рынками.

В статье рассматривается поэтапная эволюция регионального экспортного потенциала, выявляются тенденции его перехода от первоначальной ресурсной модели к инновационной и конкурентоспособной. Также анализируются новые проявления экспортного потенциала в контексте глобализации и цифровой трансформации, включая аспекты, связанные с производством продукции с высокой добавленной стоимостью, развитием логистических систем и расширением экспорта услуг.

Abstract. This article analyzes the theoretical foundations of the concept of regional export potential, as well as the stages of its formation and evolutionary development. Within the framework of the study, the economic essence of the category of export potential is examined from the perspectives of classical, neoclassical, and modern economic theories, and its interrelation with the factors of regional development is substantiated. In particular, regional export potential is interpreted as a combination of complex factors, including production resources, infrastructure, innovation capacity, institutional environment, and the level of integration with external markets.

The article examines the step-by-step evolution of regional export potential, identifying trends in its transition from an initial resource-based model to an innovation-driven and competitiveness-oriented model. It also analyzes new manifestations of export potential in the context of globalization and digital transformation, including aspects related to the production of high value-added goods, the development of logistics systems, and the expansion of service exports.

Kalit so'zlar: mintaqaviy eksport salohiyati, eksport, hududiy iqtisodiyot, raqobatbardoshlik, eksport diversifikatsiyasi, innovatsiya, globalizatsiya, tashqi savdo.

Ключевые слова: региональный экспортный потенциал, экспорт, региональная экономика, конкурентоспособность, диверсификация экспорта, инновации, глобализация, внешняя торговля.

Keywords. regional export potential; export; regional economy; competitiveness; export diversification; innovation; globalization; digital transformation; infrastructure; logistics systems; global value chains; external trade

Kirish. Globallashuv va xalqaro iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida eksport faoliyati milliy iqtisodiyotlar barqaror o'sishining muhim drayverlaridan biriga aylanmoqda. Ayniqsa, hududlar kesimida eksport salohiyatidan samarali foydalanish mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Zamonaviy iqtisodiy sharoitda eksport faqat tashqi savdo operatsiyalarining oddiy ko'inishi emas, balki hududiy raqobatbardoshlik, innovatsion rivojlanish va iqtisodiy diversifikatsiyaning muhim omili sifatida qaraladi.

Mintaqaviy eksport salohiyati tushunchasi iqtisodiy nazariyada nisbatan murakkab va ko'p qirrali kategoriya bo'lib, u ishlab chiqarish resurslari, logistika infratuzilmasi, inson kapitali, institutsional muhit va tashqi bozorlar bilan integratsiya darajasining o'zaro uyg'unlashuvi asosida shakllanadi. Shu jihatdan, hududlarning eksport salohiyatini aniqlash va uni rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda eksport salohiyati tushunchasi sezilarli evolyutsiyani boshdan kechirdi. Dastlab u asosan tabiiy resurslar va ishlab chiqarish hajmi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, bugungi kunda u innovatsion faoliyat, texnologik rivojlanish, global qiymat zanjirlarida ishtirok etish va institutsional samaradorlik kabi omillar bilan chambarchas bog'liq holda talqin etilmoqda. Bu esa mintaqaviy eksport salohiyatini kompleks tizim sifatida o'rganishni taqozo etadi.

Mazkur maqolaning maqsadi – mintaqaviy eksport salohiyati tushunchasining nazariy asoslarini tizimlashtirish, uning evolyutsion rivojlanish bosqichlarini tahlil qilish hamda zamonaviy iqtisodiy sharoitda uni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini aniqlashdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Mintaqaviy eksport salohiyati tushunchasi iqtisodiy nazariyada turli ilmiy maktablar doirasida shakllanib, evolyutsion rivojlanish bosqichlarini bosib o'tgan. Ushbu kategoriya dastlab klassik tashqi savdo nazariyalari asosida izohlangan bo'lsa, zamonaviy yondashuvlarda u innovatsion rivojlanish, raqobatbardoshlik va institutsional muhit bilan bog'liq kompleks tushuncha sifatida talqin etilmoqda.

Klassik va neoklassik nazariyalar. Eksport salohiyatining nazariy asoslari klassik iqtisodiy maktab vakillari tomonidan ishlab chiqilgan. Adam Smith o'zining fundamental asarida xalqaro savdoning asosini mutlaq ustunlik tamoyili orqali tushuntiradi¹. Mazkur asarda mamlakatlar o'zlari samarali ishlab chiqaradigan mahsulotlarni eksport qilishi orqali iqtisodiy foyda olishlari asoslab berilgan.

David Ricardo nisbiy ustunlik nazariyasini ishlab chiqib, eksport salohiyatini resurslardan nisbatan samarali foydalanish bilan izohladi².

Neoklassik yondashuvlarda eksport tarkibini ishlab chiqarish omillari bilan bog'laydi. Bu borada Eli Heckscher va Bertil Ohlin ishlari muhim hisoblanadi³. Mazkur nazariya eksport salohiyatini mamlakatdagi kapital, mehnat va resurslar nisbatiga bog'laydi.

Zamonaviy savdo va raqobat nazariyalarida eksport masalasi yondoshuvlari endi ustunlikni savdoga qaratishadi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida eksport salohiyati innovatsion va

¹ Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell. <https://www.gutenberg.org/ebooks/3300>.

² Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray. <http://www.econlib.org/library/Ricardo/ricP.html>.

³ Heckscher, E. (1919). "The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income". *Ekonomisk Tidskrift*; Ohlin, B. (1933). *Interregional and International Trade*. Cambridge: Harvard University Press. <https://archive.org/details/interregionalint00ohli>.

institutsional omillar bilan izohlanganini kuzatamiz. Michael Porter milliy va hududiy raqobatbardoshlikni eksport salohiyatining asosiy omili sifatida ko'rsatadi¹.

Paul Krugman yangi savdo nazariyasida eksportni miqyos samaradorligi va bozor tuzilmalari bilan bog'laydi². Shuningdek, global qiymat zanjirlari konsepsiyasi eksport salohiyatining yangi bosqichini ifodalaydi³.

MDH mamlakatlari ilmiy maktabida eksport salohiyati hududiy iqtisodiyot va sanoat siyosati bilan bog'liq holda o'rganilgan. A. G. Granberg hududiy rivojlanishda eksportning rolini chuqur tahlil qilgan⁴ bo'lsa, S. Yu. Glazyev eksportni iqtisodiy xavfsizlik bilan bog'laydi⁵. Rossiya olimlari eksport salohiyatini davlat siyosati, ishlab chiqarish va logistika tizimlari bilan bog'liq kompleks tushuncha sifatida izohlaydi.

O'zbekistonlik olimlar eksport salohiyatini milliy va hududiy rivojlanish kontekstida o'rganib kelmoqda. S. S. Gulyamov⁶, B. Khodiev⁷, A. Vakhobov⁸ asarlarida eksportni milliy va mintaqaviy darajada ribojlantirishning nazariy va uslubiy asoslari shakllantirilgan. Shuningdek, so'nggi ilmiy ishlarda mamlakatimizda eksportni diversifikatsiya qilish, hududiy infratuzilmani rivojlantirish va logistika tizimlarini takomillashtirish masalalari keng yoritilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy eksport salohiyati tushunchasi quyidagi evolyutsion bosqichlardan o'tgan: klassik (resurslarga asoslangan) yondashuv, neoklassik (omillar nisbatiga asoslangan) yondashuv, zamonaviy (raqobatbardoshlik va innovatsiya asosidagi) yondashuv va global (institutsional va qiymat zanjirlari asosidagi) yondashuv. Mazkur ilmiy qarashlar mintaqaviy eksport salohiyatini kompleks tizim sifatida baholash zarurligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda mintaqaviy eksport salohiyatini chuqur tahlil qilish va uning evolyutsion rivojlanishini aniqlash maqsadida tizimli (sistemali) tahlil, komparativ (taqqoslama) tahlil, evolyutsion yondashuv, statistik va empirik tahlil, strukturaviy-funksional tahlil, iqtisodiy-mantiqiy umumlashtirish usullaridan foydalanildi, Mazkur metodologik yondashuvlar majmui mintaqaviy eksport salohiyatini kompleks, tizimli va ko'p darajali iqtisodiy kategoriya sifatida o'rganish imkonini beradi hamda ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar. Xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida eksport tashqi savdoning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi, ishlab chiqarishning xalqaro ixtisoslashuvi va global qiymat zanjirlarining kengayishi eksport faoliyatining iqtisodiy rivojlanishdagi ahamiyatini yanada kuchaytirdi. Shu sababli eksport tushunchasi iqtisodiy nazariya va xalqaro savdo tadqiqotlarida muhim ilmiy kategoriya sifatida o'rganiladi.

Ilmiy adabiyotlarda eksport odatda mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning boshqa mamlakatlar bozorlarida sotilishi yoki yetkazib berilishi jarayoni sifatida talqin qilinadi. Xalqaro savdo bo'yicha klassik darsliklardan biri bo'lgan P.Krugman, M.Obstfeld, M. Melitzning "Xalqaro iqtisodiyot: nazariya va siyosat" asarida eksport mamlakatlar o'rtasidagi savdo almashinuvi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy bozorlarda realizatsiya qilish jarayoni sifatida izohlanadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, eksport mamlakat iqtisodiyotining xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnini belgilaydi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi⁹.

¹ Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.

² Krugman, P. (1979). "Increasing Returns, Monopolistic Competition, and International Trade". *Journal of International Economics*, 9(4), 469–479. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0022199679900175>.

³ Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). "The Governance of Global Value Chains". *Review of International Political Economy*, 12(1), 78-104. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/09692290500049805>.

⁴ Гранберг, А. Г. (2004). *Основы региональной экономики*. Москва: ГУ ВШЭ.

⁵ Глазьев, С. Ю. (2012). *Стратегия опережающего развития России*. Москва: Экономика.

⁶ Gulyamov, S. S. (2018). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.

⁷ Xodiev, B. Yu. (2020). *Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish*. Toshkent: Fan.

⁸ Vaxabov, A. V. (2019). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Toshkent: Universitet.

⁹ **Krugman P., Obstfeld M., Melitz M.** "International Economics: Theory and Policy". Addison-Wesley. 2012. 705-p. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/international-economics-theory-and-policy/P200000003222>

Ayrim iqtisodiy adabiyotlarda eksport tushunchasi kengroq iqtisodiy kategoriya sifatida ko'rib chiqiladi. UNCTAD (BMTning savdo va taraqqiyot bo'yicha konferensiyasi) materiallarida eksport milliy iqtisodiyotning global iqtisodiy tizimga integratsiyalashuvining muhim ko'rsatkichi sifatida tavsiflanadi. UNCTAD mutaxassislarining fikricha, eksport nafaqat tovar va xizmatlarni tashqi bozorga chiqarish jarayonini, balki iqtisodiyotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish samaradorligi hamda innovatsion rivojlanish darajasini ham aks ettiradi. Shu sababli eksport ko'rsatkichlari ko'pincha mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini baholashda muhim indikator sifatida qo'llaniladi¹.

Klassik iqtisodiy nazariya vakillari, xususan Adam Smith va David Ricardo, eksportni xalqaro mehnat taqsimoti va ixtisoslashuv natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy jarayon sifatida izohlaganlar. A. Smithning mutlaq ustunlik nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar o'zlarida ishlab chiqarish xarajatlari past bo'lgan mahsulotlarni eksport qilish orqali iqtisodiy foyda oladilar. D. Ricardo esa nisbiy ustunlik nazariyasini ishlab chiqib, mamlakatlar o'zlari nisbatan samarali ishlab chiqaradigan mahsulotlarni eksport qilishi iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligini ilmiy asoslab berdi. Ushbu nazariyalar eksport faoliyatining iqtisodiy asoslarini tushuntirib beruvchi fundamental yondashuv hisoblanadi².

Keyingi davrlarda xalqaro savdo nazariyasida eksportni tushuntiruvchi neoklassik yondashuvlar shakllandi. Heckscher–Ohlin nazariyasiga ko'ra, mamlakatlar o'zlarida nisbatan ko'p mavjud bo'lgan ishlab chiqarish omillaridan intensiv foydalaniladigan mahsulotlarni eksport qiladilar. Ya'ni kapitalga boy mamlakatlar kapital sig'imli mahsulotlarni, mehnat resurslariga boy mamlakatlar esa mehnat sig'imli mahsulotlarni eksport qilishga moyil bo'ladi. Bu nazariya eksportning omillar bilan ta'minlanganlik darajasi bilan bog'liqligini ko'rsatadi³.

Zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda eksport tushunchasi yanada murakkab iqtisodiy jarayon sifatida ko'rib chiqiladi. XX asrning oxirlarida paydo bo'lgan yangi savdo nazariyasi eksportni ishlab chiqarish miqyosi samaradorligi, texnologik ustunlik va bozor tuzilmasi bilan bog'laydi. Ushbu nazariyaning muhim vakillaridan biri bo'lgan Paul Krugman xalqaro savdo ko'pincha o'xshash resurslarga ega mamlakatlar o'rtasida ham amalga oshirilishini asoslab berdi. Uning fikricha, eksport faqat resurslar farqi bilan emas, balki miqyos iqtisodiyoti va mahsulot differensiasiyasi bilan ham izohlanadi⁴.

M.Porterga ko'ra, eksport muvaffaqiyati mamlakatdagi innovatsiya muhiti, sanoat klasterlari, raqobat darajasi va davlat siyosati bilan chambarchas bog'liq. Ushbu nazariya eksportni milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi bilan bevosita bog'lab tushuntiradi⁵.

So'nggi yillarda eksport tushunchasi global qiymat zanjirlari (GVC) konsepsiyasi asosida ham keng tahlil qilinmoqda. Jahon banki va OECD tadqiqotlarida eksport ko'pincha ishlab chiqarish jarayonining turli bosqichlari turli mamlakatlarda amalga oshiriladigan global ishlab chiqarish tizimining bir qismi sifatida qaraladi. Bunda eksport faqat tayyor mahsulotlarni sotish bilan cheklanmay, balki yarim tayyor mahsulotlar, texnologiya, xizmatlar va intellektual resurslar almashinuvi orqali ham amalga oshiriladi. Bu esa eksport faoliyatining zamonaviy iqtisodiyotdagi rolini yanada kengaytiradi⁶.

Iqtisodiy tadqiqotlarda eksport tushunchasining yana bir muhim jihati — uning iqtisodiy rivojlanish bilan bog'liqligidir. Ko'plab empirik tadqiqotlar eksportning oshishi sanoat rivoji, bandlik darajasi va texnologik modernizatsiyani rag'batlantirishini ko'rsatadi⁷. Ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy siyosat iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida qaraladi. Jahon banki tadqiqotlari eksport faoliyati kuchli bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarish samaradorligi va innovatsion faollik yuqori bo'lishini ko'rsatadi.

¹ Trade analysis. <https://unctad.org/topic/trade-analysis>.

² Donald J. Boudreaux. Comparative Advantage. <https://www.econlib.org/library/Enc/ComparativeAdvantage.html>.

³ Heckscher-Ohlin theory. <https://www.britannica.com/topic/Heckscher-Ohlin-theory>.

⁴ Krugman P. <https://www.nobelprize.org/prizes/economic-sciences/2008/krugman/facts/>.

⁵ Porter M. Competitive Advantage of Nations <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.

⁶ Global Value Chains. <https://www.oecd.org/trade/topics/global-value-chains/>.

⁷ Trade. <https://www.worldbank.org/en/topic/trade>

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili eksport tushunchasi ko'p qirrali iqtisodiy kategoriya ekanligini ko'rsatadi. Klassik nazariyalarda eksport asosan xalqaro ixtisoslashuv natijasi sifatida talqin qilingan bo'lsa, zamonaviy tadqiqotlarda u raqobatbardoshlik, innovatsiya, global qiymat zanjirlari va iqtisodiy integratsiya bilan bog'liq murakkab iqtisodiy jarayon sifatida ko'rib chiqilmoqda. Shu nuqtai nazardan, eksport nafaqat tashqi savdoning muhim elementi, balki milliy va mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishni ta'minlovchi strategik omillardan biri hisoblanadi.

Muallif tadqiqot davomida "Mintaqaviy eksport salohiyati" kategoriyasini ham tadqiq qilib, uning xususiyatlarini aniqlashga urindi. Mintaqaviy eksport salohiyati ilmiy tadqiqotlarda odatda hududning mavjud va istiqboldagi resurslari, ishlab chiqarish quvvati, texnologik darajasi, institutsional muhiti, tashqi bozorlarga kirish imkoniyati va logistika sharoitlari asosida xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot hamda xizmatlarni taklif qila olish qobiliyati sifatida talqin qilinadi. Zamonaviy metodikalarda bu tushuncha faqat "qancha eksport qilinayotgani" bilan emas, balki amalga oshirilmagan eksport imkoniyati, yangi bozorlarga chiqish ehtimoli, yuqori qo'shilgan qiymat yaratish va diversifikatsiya salohiyati bilan ham o'lchanadi. ITC metodologiyasida eksport salohiyati uch tayanch omil – taklif (supply), talab (demand) va savdoni amalga oshirish qulayligi (ease of trade) kombinatsiyasi sifatida izohlanadi¹.

Ilmiy nuqtai nazardan, mintaqaviy eksport salohiyati milliy eksport salohiyatidan torroq, ammo amaliy siyosat uchun aniqroq kategoriya hisoblanadi. Chunki hududlar o'rtasida sanoat tarkibi, transport-logistika, inson kapitali, klasterlashuv, innovatsion muhit va tashqi bozorlarga chiqish xarajatlari sezilarli farq qiladi. Jahon banki tadqiqotlari ham firmalarning eksportga kirishi faqat firma xususiyatlariga emas, balki ular joylashgan hududning investitsion iqlimi va aglomeratsiya omillariga ham bog'liqligini ko'rsatadi; ayniqsa "core" va "non-core" hududlar o'rtasida determinantlar farqlanadi.

Ilmiy tadqiqotda muallif mintaqaning eksport salohiyati tushunchasini talqin qilishda mazmuniy jihatdan quyidagi uch yondashuv asosida izohlaydi:

Birinchi yondashuv – resurs-ishlab chiqarish yondashuvi. Bu yondashuvga ko'ra, hudud eksport salohiyati uning tabiiy resurslari, mehnat resurslari, kapital, ishlab chiqarish quvvati, ixtisoslashuvi va texnologik bazasi bilan belgilanadi. Ayrim tadqiqotlarda mintaqaviy eksport salohiyati ayniqsa yuqori texnologiyali va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratish, intellektual resurslar va raqamli texnologiyalar bilan bog'lab tushuntiriladi². Bu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u hududning ichki ishlab chiqarish bazasini markazga qo'yadi; zaif tomoni esa tashqi talab va bozor kirish to'siqlarini yetarli hisobga olmasligidadir.

Ikkinchi yondashuv – bozor-talab yondashuvi. UNCTAD eksport natijasini nazariy jihatdan xorijiy bozorga kirish va taklif salohiyati ko'paytmasi sifatida tushuntiradi. Bu yondashuvda hudud eksport salohiyati ichki resurslarga emas, balki ayni paytda qaysi tashqi bozorda qanday talab mavjudligi, o'sha bozorda narx, standart, raqobat va kirish shartlari qandayligi bilan birga baholanadi³. Shu sababli, eksport salohiyatini aniqlashda "nima ishlab chiqarish mumkin?" degan savol bilan bir qatorda "qaysi bozorda buni sotish mumkin?" degan savol ham markaziy o'rin tutadi.

Uchinchi yondashuv – gravitatsion (gravity-type) yondashuv. ITCning eksport potentsiali indikatorini aynan gravity-tipdagi ramkadan ilhomlanib, mavjud raqobatbardosh mahsulotlar bo'yicha qaysi bozorlarda eksportni oshirish mumkinligini aniqlaydi. Bu yerda masofa, savdo xarajatlari, mavjud savdo oqimlari, bozor hajmi va kirish qulayligi inobatga olinadi⁴. Ushbu yondashuvning afzalligi – u amaliy eksport bozorlari tanlovida juda qulay; cheklovi – ko'proq

¹ International Trade Centre (ITC), Export Potential and Diversification Assessments: A methodology to identify export opportunities. https://www.btdchina.com/?gad_source=1&gad_campaignid=21856002869&gbraid.

² Vasilyeva, Filimonenko, Likhacheva, Formation of Export Potential of Regional Economy. https://www.researchgate.net/publication/359037160_Formation_of_Export_Potential_of_Regional_Economy.

³ UNCTAD, Determinants of Export Performance. https://unctad.org/system/files/official-document/ditctab20051ch2_en.pdf.

⁴ Farole, T. (World Bank), Firm Location and the Determinants of Exporting in Developing Countries. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/a0c87158-c886-513c-a3e9-a780880b8301>.

mavjud eksport yoʻnalishlarini kengaytirishni koʻrsatadi, ammo uzoq muddatli tarkibiy transformatsiyani toʻliq ochib bermaydi.

Toʻrtinchi yondashuv – diversifikatsiya va “product space” yondashuvi. Bu yondashuv Hausmann–Hidalgo maktabiga borib taqaladi va hudud hozir eksport qilayotgan mahsulotlar bilan “yaqin” boʻlgan yangi mahsulotlarga oʻtish imkoniyatini tahlil qiladi. ITC Product Diversification Indicator hisobida aynan mahsulotlar oʻrtasidagi relatedness/proximity va mamlakatning amaldagi eksport savatiga masofa koʻrsatkichlari ishlatiladi. Mintaqa darajasida ham bu yondashuv qoʻllanib, masalan Italiya provinsiyalarida eksport tarmogʻining markaziyliigi va bogʻliqligi hududiy iqtisodiy natijalar bilan aloqador ekani koʻrsatilgan¹. Bu ilmiy yondashuv eksport salohiyatini oddiy hajmdan koʻra murakkabroq – yaʼni kelajakdagi tarkibiy sakrash imkoniyati sifatida talqin qiladi.

Beshinchi yondashuv – institutsional va logistika yondashuvi. Hudud eksport salohiyati faqat ishlab chiqarish emas, balki bojxona amaliyoti, sertifikatlash, transport yoʻlaklari, chegara oʻtish xarajatlari, investitsion muhit va eksportni qoʻllab-quvvatlash institutlariga ham bogʻliq. Yevropa Komissiyasi materiallarida global qiymat zanjirlari (GVC), FDI va hududiy rivojlanish oʻrtasidagi uzviy bogʻliqlik koʻrsatiladi; OECD hisobotlari esa eksportni rivojlantirishda savdo qulayligi, raqobatbardoshlik va qiymat zanjirlariga integratsiya muhimligini taʼkidlaydi². Bu yondashuv ayniqsa sanoatlashayotgan hududlar uchun muhim.

Oltinchi yondashuv – indikatorli baholash va monitoring yondashuvi. Ayrim ilmiy ishlarda mintaqaviy eksport salohiyati muntazam monitoring qilinadigan koʻrsatkichlar tizimi orqali baholanadi: eksport hajmi, eksport tarkibi, diversifikatsiya darajasi, qayta ishlash ulushi, resurs salohiyati, logistika va boshqalar³. Bunday yondashuvning ustunligi – hududlararo taqqoslash va siyosat monitoringiga qulayligi; kamchiligi esa koʻp hollarda koʻrsatkichlar yigʻindisi eksportning sifat tomoni va yashirin imkoniyatlarini toʻliq aks ettirmasligidir.

Muallif tadqiqot jarayonida olingan xulosalarga asosan mintaqaviy salohiyat tushunchasiga oʻzining mualliflik taʼrifini ishlab chiqdi, u quyidagicha tavsiflandi:

“Mintaqaviy eksport salohiyati – bu hududning resurs, ishlab chiqarish, texnologik, institutsional va logistika imkoniyatlari hamda tashqi bozorlardagi talab va savdo qulayligi omillari uygʻunligi asosida xalqaro bozorda raqobatbardosh mahsulot va xizmatlarni taklif etish, eksportni barqaror kengaytirish hamda yangi yoʻnalishlariga diversifikatsiyalash qobiliyatidir”.

Eksportni rivojlantirish va hudud eksport salohiyatini oshirish katta iqtisodiy ahamiyatga egadir. Zamonaviy global iqtisodiyot sharoitida eksportni rivojlantirish milliy va mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror oʻsishini taʼminlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Eksport faoliyati orqali mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimotida faol ishtirok etadi, yangi bozorlarni egallaydi hamda iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish imkoniyatiga ega boʻladi. Shu sababli iqtisodiy adabiyotlarda eksport iqtisodiy oʻsishning muhim drayverlaridan biri sifatida qaraladi.

Birinchidan, eksport iqtisodiy oʻsishni ragʻbatlantiradi. Koʻplab iqtisodiy tadqiqotlar eksport hajmining ortishi ishlab chiqarish hajmining kengayishiga va iqtisodiy oʻsish surʼatlarining tezlashishiga olib kelishini koʻrsatadi. Jahon banki tadqiqotlariga koʻra, eksportga yoʻnaltirilgan iqtisodiy siyosat yuritgan davlatlar iqtisodiy oʻsish surʼatlari boʻyicha boshqa mamlakatlarga nisbatan yuqori natijalarga erishgan⁴. Eksport orqali ishlab chiqarish hajmi oshadi, yangi investitsiyalar jalb qilinadi hamda iqtisodiyotning tarkibiy modernizatsiyasi jadallashadi.

Ikkinchidan, eksport milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini taʼminlaydi. Tashqi savdo operatsiyalari orqali mamlakatga kirib keladigan valyuta resurslari importni moliyalashtirish, davlat byudjetini barqarorlashtirish hamda investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun muhim

¹ Cicerone et al., Relatedness, revealed comparative advantage and the product space: an analysis of Italian provinces. https://iris.gssi.it/retrieve/fff9f583-4424-4ba5-8683-3b230ca895ef/2020_JEconGeogr_20_Cicerone.pdf.

² OECD OECD's Indicators of International Trade and Competitiveness. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-s-indicators-of-international-trade-and-competitiveness_708306180711.html.

³ European Commission, Foreign Direct Investment, Global Value Chains and Regional Economic Development.

⁴ Trade. <https://www.worldbank.org/en/topic/trade>.

manba bo'lib xizmat qiladi. Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) ekspertlari¹ eksportdan tushadigan daromadlar rivojlanayotgan mamlakatlar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi muhim moliyaviy manbalardan biri ekanligini ta'kidlaydi.

Uchinchidan, eksport ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi. Xalqaro bozorlar bilan integratsiyalashuv mahalliy korxonalarini yuqori sifat standartlariga moslashishga, innovatsion texnologiyalarni joriy etishga hamda mahsulot raqobatbardoshligini oshirishga majbur qiladi. OECD tadqiqotlariga ko'ra², eksport qiluvchi korxonalar ichki bozorda faoliyat yurituvchi korxonalarga nisbatan yuqori mehnat unumdorligi va innovatsion faollikka ega bo'ladi.

To'rtinchidan, eksport hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi. Mintaqaviy iqtisodiyot nuqtai nazaridan eksport salohiyatining oshishi hududlarda sanoat klasterlarining shakllanishi, yangi ishlab chiqarish tarmoqlarining paydo bo'lishi hamda iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytiradi. Masalan, iqtisodchi Michael Porterning raqobat ustunligi nazariyasiga ko'ra³, eksportga yo'naltirilgan klasterlarning rivojlanishi hududiy iqtisodiy o'sishning muhim omili hisoblanadi.

Beshinchidan, eksport hududiy iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi. Xomashyo eksportiga bog'liq bo'lgan iqtisodiyotlar uzoq muddatda iqtisodiy xavflarga duch keladi. Shu sababli ko'plab davlatlar eksport tarkibini diversifikatsiya qilishga, yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar eksportini kengaytirishga intilmoqda. UNCTAD ekspertlari eksport diversifikatsiyasi iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy shoklarga chidamlilikni oshirishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi⁴.

Umuman olganda, eksportni rivojlantirish va hudud eksport salohiyatini oshirish iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish samaradorligi, investitsiyalarni jalb qilish hamda iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Eksport mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi. Xalqaro savdo aloqalarining kengayishi mamlakatlar o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlaydi. Jahon savdo tashkiloti (WTO) materiallarida eksport va savdo integratsiyasi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash orqali global iqtisodiy tizim barqarorligiga xizmat qilishi ta'kidlanadi⁵.

1.3-jadval.

Eksportni rivojlantirish va hudud eksport salohiyatini oshirish.

| | Iqtisodiy ahamiyati | Ijtimoiy ahamiyati | Siyosiy ahamiyati |
|---|---|--|--|
| 1 | Iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi | Bandlike darajasining oshishiga xizmat qiladi | Eksport mamlakatning xalqaro iqtisodiy integratsiyasini kuchaytiradi |
| 2 | Milliy iqtisodiyotga valyuta tushumlarini ta'minlaydi | Aholi daromadlari darajasini oshiradi | Mamlakatning geoiqtisodiy mavqeini mustahkamlaydi |
| 3 | Ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi | Inson kapitali rivojlanishiga yordam beradi | Davlatlar o'rtasidagi diplomatik va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantiradi |
| 4 | Hududiy iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiradi | Hududiy rivojlanish va infratuzilma rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi | Milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga yordam beradi |
| 5 | Iqtisodiy diversifikatsiyani ta'minlaydi | Hududlar o'rtasidagi ijtimoiy tafovutlarni kamaytirishga yordam beradi | Davlatning xalqaro nufuzini oshiradi |

¹ Trade. <https://www.imf.org/en/Topics/trade>.

² Trade. <https://www.oecd.org/trade>.

³ The competitive advantage of nations. <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.

⁴ Trade analysis. <https://unctad.org/topic/trade-analysis>.

⁵ <https://www.wto.org>.

Siyosiy jihatdan, eksport mamlakatning geoiqtisodiy mavqeini mustahkamlaydi. Xalqaro savdoda faol ishtirok etayotgan mamlakatlar global iqtisodiy tizimda muhim rol o'ynaydi. Eksport salohiyatining yuqori bo'lishi davlatning xalqaro iqtisodiy tashkilotlardagi ta'sirini ham oshiradi (1.3-jadval)..

Eksport jarayonlarining davlatlar o'rtasidagi diplomatik va iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishdagi siyosiy ahamiyati ham beqiyosdir. Savdo aloqalarining kengayishi ikki tomonlama va ko'p tomonlama iqtisodiy hamkorlikni kuchaytiradi. Xalqaro savdo ko'pincha davlatlar o'rtasidagi siyosiy munosabatlarning barqarorlashuviga ham xizmat qiladi.

Eksport milliy iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlashga katta ahamiyatga ega. Diversifikatsiyalangan eksport tarkibi mamlakat iqtisodiyotini tashqi iqtisodiy shoklardan himoya qilish imkonini beradi. Bu esa davlatning iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashga xizmat qiladi. U davlatning xalqaro maydonda nufuzini oshiradi. Yuqori texnologiyali mahsulotlar eksport qiluvchi davlatlar xalqaro maydonda innovatsion va raqobatbardosh iqtisodiyotga ega mamlakat sifatida tan olinadi. Bu esa davlatning global iqtisodiy tizimdagi siyosiy va iqtisodiy mavqeini mustahkamlaydi.

Muallif eksportni rivojlantirish va hudud eksport salohiyatini oshirish davlatning, uning har bir mintaqasining xalqaro va hududlararo iqtisodiy integratsiyasi, geoiqtisodiy mavqei va siyosiy barqarorligini mustahkamlashda muhim strategik ahamiyatga egaligini ta'kidlaydi.

Hudud eksport salohiyatini oshirishning samarali yondoshuvlaridan yana biri eksportni diversifikatsiyalashdir. Eksportni diversifikatsiya qilish mamlakat yoki hudud eksport tarkibini kengaytirish, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish va yangi tashqi bozorlarga chiqish orqali eksportning tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish jarayoni sifatida talqin qilinadi. Bu jarayon eksportning ma'lum bir mahsulot yoki bozorga haddan tashqari bog'lanib qolishini kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

UNCTAD ekspertlarining fikricha, eksport tarkibining kengayishi mamlakat iqtisodiyotining tashqi iqtisodiy shoklarga chidamliligini oshiradi hamda barqaror iqtisodiy o'sish uchun sharoit yaratadi¹.

Eksportni diversifikatsiyalash mamlakat iqtisodiyotini jahon bozoridagi narx o'zgarishlari va tashqi iqtisodiy risklardan himoya qiladi. Agar eksport asosan bitta mahsulotga bog'liq bo'lsa, ushbu mahsulot narxining pasayishi iqtisodiyotga katta zarar yetkazishi mumkin.

Masalan, ko'plab xomashyo eksportiga ixtisoslashgan mamlakatlarda neft yoki gaz narxining keskin o'zgarishi iqtisodiy o'sish sur'atlariga salbiy ta'sir ko'rsatgan. Shu sababli iqtisodiy siyosatda eksport tarkibini diversifikatsiya qilish muhim strategiya sifatida qaraladi. Norvegiya neft eksportiga qaram bo'lish xavfini kamaytirish maqsadida sanoat, xizmatlar va yuqori texnologiyali tarmoqlarni rivojlantirish orqali eksport tarkibini kengaytirdi. Natijada mamlakat iqtisodiy barqarorlikni saqlab qolishga erishdi².

Eksportni diversifikatsiya qilish orqali hududlar xomashyo eksportidan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportiga o'tishi mumkin. Bu esa milliy iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Janubiy Koreya 1960-yillarda asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilgan bo'lsa, keyinchalik sanoatni rivojlantirish orqali elektronika, avtomobil va texnologik mahsulotlar eksportiga o'tdi. Bugungi kunda Samsung, Hyundai, LG kabi kompaniyalar Janubiy Koreyaning eksport salohiyatini shakllantiruvchi asosiy omillar bo'ldi³.

Xulosa. Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy eksport salohiyati zamonaviy iqtisodiyot sharoitida hududiy rivojlanishning muhim determinanti sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu kategoriya o'zining evolyutsion rivojlanish jarayonida sodda resurslarga asoslangan modeldan murakkab, innovatsion va raqobatbardoshlikka yo'naltirilgan tizimga aylanganligi aniqlandi.

¹ Export diversification. <https://unctad.org/topic/trade-analysis/export-diversification>.

² Norway - economic survey. <https://www.oecd.org/norway/economic-survey-norway.htm>.

³ Korea overview. <https://www.worldbank.org/en/country/korea/overview>.

Tadqiqot davomida mintaqaviy eksport salohiyatining nazariy asoslari tizimlashtirilib, uning iqtisodiy mazmuni ishlab chiqarish resurslari, infratuzilma, inson kapitali, innovatsion salohiyat, institutsional muhit va tashqi bozorlarga integratsiya darajasi kabi omillarning o'zaro uyg'unligi sifatida asoslab berildi. Shu bilan birga, eksport salohiyatining shakllanishi va rivojlanishida global qiymat zanjirlari, logistika tizimlari va raqamli transformatsiyaning ahamiyati ortib borayotgani ilmiy jihatdan tasdiqlandi.

Adabiyotlar tahlili va metodologik yondashuvlar asosida mintaqaviy eksport salohiyatining evolyutsiyasi to'rtta asosiy bosqich orqali shakllanganligi aniqlanib, ular resurslarga asoslangan, omillar nisbatiga asoslangan, raqobatbardoshlik va innovatsiyaga yo'naltirilgan hamda institutsional-integratsion bosqichlardan iborat ekanligi asoslandi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqaviy eksport salohiyatini oshirish uchun quyidagi ustuvor yo'nalishlar muhim hisoblanadi:

eksportni diversifikatsiya qilish va yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ulushini oshirish;

transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirish va tranzit salohiyatidan samarali foydalanish;

kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni eksport faoliyatiga keng jalb etish;

innovatsion faoliyat va texnologik modernizatsiyani rag'batlantirish;

institutsional muhitni takomillashtirish va eksportni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish.

Umuman olganda, mintaqaviy eksport salohiyatidan samarali foydalanish hududlarning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va aholi farovonligini yaxshilashning muhim omili hisoblanadi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish hamda eksportga yo'naltirilgan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. Smith, A. (1776). *An Inquiry into the Nature and Causes of the Wealth of Nations*. London: W. Strahan and T. Cadell. <https://www.gutenberg.org/ebooks/3300>.
2. Ricardo, D. (1817). *On the Principles of Political Economy and Taxation*. London: John Murray. <http://www.econlib.org/library/Ricardo/ricP.html>.
3. Heckscher, E. (1919). "The Effect of Foreign Trade on the Distribution of Income". *Ekonomisk Tidskrift*; Ohlin, B. (1933). *Interregional and International Trade*. Cambridge: Harvard University Press. <https://archive.org/details/interregionalint00ohli>.
4. Porter, M. E. (1990). *The Competitive Advantage of Nations*. New York: Free Press. <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.
5. Krugman, P. (1979). "Increasing Returns, Monopolistic Competition, and International Trade". *Journal of International Economics*, 9(4), 469–479. <https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/0022199679900175>.
6. Gereffi, G., Humphrey, J., & Sturgeon, T. (2005). "The Governance of Global Value Chains". *Review of International Political Economy*, 12(1), 78-104. <https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/09692290500049805>.
7. Гранберг, А. Г. (2004). *Основы региональной экономики*. Москва: ГУ ВШЭ.
8. Глазьев, С. Ю. (2012). *Стратегия опережающего развития России*. Москва: Экономика.
1. Gulyamov, S. S. (2018). *Raqamli iqtisodiyot asoslari*. Toshkent: Iqtisodiyot.
9. Xodiev, B. Yu. (2020). *Milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish*. Toshkent: Fan.
10. Vaxabov, A. V. (2019). *Xalqaro iqtisodiy munosabatlar*. Toshkent: Universitet.
11. **Krugman P., Obstfeld M., Melitz M.** "International Economics: Theory and Policy". Addison-Wesley. 2012. 705-p. <https://www.pearson.com/en-us/subject-catalog/p/international-economics-theory-and-policy/P200000003222>
12. Trade analysis. <https://unctad.org/topic/trade-analysis>.

13. Donald J. Boudreaux. Comparative Advantage. <https://www.econlib.org/library/Enc/ComparativeAdvantage.html>.
14. Global Value Chains. <https://www.oecd.org/trade/topics/global-value-chains/>.
15. Trade. <https://www.worldbank.org/en/topic/trade>
16. International Trade Centre (ITC), Export Potential and Diversification. https://www.btdchina.com/?gad_source=1&gad_campaignid=21856002869&gbraid.
17. Vasilyeva, Filimonenko, Likhacheva, Formation of Export Potential of Regional Economy. <https://www.researchgate.net/publication/359037160>.
18. UNCTAD, Determinants of Export Performance. https://unctad.org/system/files/official-document/ditctab20051ch2_en.pdf.
19. Farole, T. (World Bank), Firm Location and the Determinants of Exporting in Developing Countries. <https://openknowledge.worldbank.org/entities/publication/a0c87158-c886-513c-a3e9-a780880b8301>.
20. Cicerone et al., Relatedness, revealed comparative advantage and the product space: an analysis of Italian provinces. https://iris.gssi.it/retrieve/fff9f583-4424-4ba5-8683-3b230ca895ef/2020_JEconGeogr_20_Cicerone.pdf.
21. OECD OECD's Indicators of International Trade and Competitiveness. https://www.oecd.org/en/publications/oecd-s-indicators-of-international-trade-and-competitiveness_708306180711.html.
22. European Commission, Foreign Direct Investment, Global Value Chains and Regional Economic Development.
23. Trade. <https://www.worldbank.org/en/topic/trade>.
24. Trade. <https://www.imf.org/en/Topics/trade>.
25. Trade. <https://www.oecd.org/trade>.
26. The competitive advantage of nations. <https://hbr.org/1990/03/the-competitive-advantage-of-nations>.
27. Trade analysis. <https://unctad.org/topic/trade-analysis>.
28. <https://www.wto.org>.
29. Export diversification. <https://unctad.org/topic/trade-analysis/export-diversification>.
30. Norway - economic survey. <https://www.oecd.org/norway/economic-survey-norway.htm>.
31. Korea overview. <https://www.worldbank.org/en/country/korea/overview>.